“RUSTAMXON” DOSTONINING VARIANTLARI: QIYOSIY-TIPOLOGIK TAHLIL VA IJROCHILIK AN’ANALARI

Mohinur Xaydarova
E-mail: xaydarovamohinur2@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek xalqining qahramonlik-romanik dostonlari sirasiga kiruvchi “Rustamxon” dostonining variantlilik xususiyatlari, uning turli baxshilar tomonidan ijro etilishi va matnning shakllanishida ijrochilik an’analarining o‘rni tahlil qilinadi. Dostonning Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Rahmatulla Yusuf o‘g‘li, Mallaboy Hoshimov, Melash Ermatov, Alim Haqqulov va Abdunazar Poyonov bilan bog‘liq variantlari haqida mavjud manbaviy ma’lumotlar qiyosiy jihatdan ko‘rib chiqiladi. Xususan, 1702-inventar raqamida saqlanayotgan Rahmatulla Yusuf o‘g‘li varianti hamda Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li varianti alohida ilmiy ahamiyatga ega manbalar sifatida baholanadi. Tadqiqotda variantlilik folklor matnining buzilishi emas, balki og‘zaki an’ananing tabiiy yashash, qayta talqin qilinish va ijodiy yangilanish shakli ekanligi asoslanadi.
Kalit so‘zlar: folklor, doston, variant, versiya, baxshi, dostonchilik maktabi, metod, ijrochilik an’anasi, qiyosiy-tipologik tahlil, epik an’ana.

Аннотация: В статье рассматриваются особенности вариантности узбекского героико-романического дастана «Рустамхан», его бытование в устной традиции и роль исполнительских традиций в формировании текста. В сравнительно-типологическом аспекте анализируются сведения о вариантах дастана, связанных с Фозилом Йўлдош оглы, Рахматуллой Юсуф оглы, Маллабоем Хошимовым, Мелашем Эрматовым, Олимом Хаккуловым и Абдуназаром Пойоновым. Особое внимание уделяется варианту Рахматуллы Юсуф оглы, хранящемуся в архиве под инвентарным номером 1702, и варианту Фозила Йўлдош оглы. Обосновывается положение о том, что вариантность является не искажением фольклорного текста, а естественной формой его существования, переосмысления и творческого обновления в устной традиции.
Ключевые слова: фольклор, дастан, вариант, версия, бахши, школа дастанного исполнительства, исполнительская традиция, сравнительно-типологический анализ, эпическая традиция.

Abstract: This article examines the variant forms of the Uzbek heroic-romantic epic “Rustamkhan”, its existence within the oral tradition, and the role of performance traditions in shaping the text. From a comparative-typological perspective, the study considers available information on the variants associated with Fozil Yuldosh ogli, Rahmatulla Yusuf ogli, Mallaboy Hoshimov, Melash Ermatov, Olim Haqqulov, and Abdunazar Poyonov. Particular attention is given to the version of Rahmatulla Yusuf ogli preserved in the archive under inventory number 1702 and to the version performed by Fozil Yuldosh ogli. The study argues that variation should not be regarded as a distortion of a folklore text, but rather as a natural form of its existence, reinterpretation, and creative renewal within the oral tradition.
Keywords: folklore, epic, variant, version, bakhshi, epic performance school, performance tradition, comparative-typological analysis, epic tradition.

Kirish. Xalq og‘zaki ijodi namunalarining eng muhim xususiyatlaridan biri ularning og‘zaki ijro va an’ana asosida yashashidir. Folklor asari yozma adabiyotdagi kabi birgina muallif tomonidan yaratilgan va o‘zgarmas matn shaklida avloddan avlodga o‘tmaydi. Aksincha, baxshi yoki ijrochi tomonidan har galgi ijro jarayonida an’anaviy sujet, motiv va

obrazlar qayta jonlantiriladi. Shu sababli folklor asarlarining bir necha variantlarda mavjud bo‘lishi uning tabiiy poetik xususiyatlaridan biridir.

“Rustamxon” dostoni ham o‘zbek xalq dostonchiligi tarixida keng tarqalgan va ko‘plab baxshilar repertuaridan o‘rin olgan epik asarlardan biridir. Dissertatsiya materiallarida ushbu dostonning bir necha variantlari mavjudligi qayd etilib, ular turli davr va hududlarda yashagan baxshilardan yozib olingani ko‘rsatiladi. Xususan, Mallaboy Hoshimovdan 1935-yilda yozib olingan variant 594-inventar raqami ostida saqlanadi; Melash Ermatovdan yozib olingan variant esa 1940-yilga mansub. Shuningdek, Olim Haqqulov ijrosidagi audio variant professor To‘ra Mirzayev tomonidan yozma shaklga keltirilgan.

“Rustamxon”ning variantlari orasida Rahmatulla Yusuf o‘g‘li tomonidan yozib topshirilgan qo‘lyozma alohida ahamiyatga ega. Mazkur variant 1975-yilda Samarqand viloyati Qo‘shrabot tumanining Qorakisa qishlog‘ida yozib olingan bo‘lib, O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti Folklor arxivida 1702-inventar raqami ostida saqlanadi. Qo‘lyozmaning umumiy hajmi 274 sahifani tashkil etadi. Rahmatulla Yusuf o‘g‘li Qo‘rg‘on dostonchilik maktabi an’analarining davomchisi sifatida tavsiflanadi.

Dostonning boshqa variantlari ham “Rustamxon”ning xalq orasida keng yashaganidan dalolat beradi. 1935-yilda Mallaboy Hoshimovdan yozib olingan variantning 392 she’riy misra va 608 nasriy qatorni, 1940-yilda Melash Ermatovdan yozib olingan variantning esa 483 she’riy misra va 1026 nasriy qatorni o‘z ichiga olgani qayd etilgan.

Shu jihatdan “Rustamxon” variantlarini qiyosiy-tipologik o‘rganish dostonning nafaqat sujet va obrazlar tizimini, balki o‘zbek dostonchilik maktablarining ijodiy xususiyatlarini aniqlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotning maqsadi — “Rustamxon” dostonining turli variantlarini qiyosiy-tipologik jihatdan tahlil qilish hamda ularning shakllanishida ijrochilik an’analarining o‘rnini aniqlashdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

“Rustamxon” dostonining ilmiy o‘rganilishi o‘zbek folklorshunosligida uzoq tarixga ega. Mazkur doston va uning ijrochilari haqida dastlabki muhim ilmiy ma’lumotlar V.M. Jirmunskiy va H.T. Zarifovning tadqiqotlarida berilgan. Olimlar “Rustamxon”ni qahramonlik-romanik epos namunasi sifatida baholab, uning epik tabiatini o‘zbek dostonchilik an’analari doirasida yoritganlar (Jirmunskiy and Zarifov, 1947).

M. Obidova “Rustamxon” turkumi dostonlarini maxsus tadqiq etib, mazkur dostonlar turkumining sujet va obrazlar tizimi, qahramonlarning o‘zaro munosabatlari hamda epik voqealar rivojini tahlil qilgan. Tadqiqotchining fikrlaridan “Rustamxon” sujeti bir nechta mustaqil, biroq o‘zaro bog‘liq sujet halqalaridan tashkil topganini ko‘rish mumkin (Obidova, 1982).

T. Mirzayev xalq baxshilarining epik repertuarlarini tadqiq etar ekan, dostonlarning ijro muhiti, baxshi repertuari va og‘zaki an’ananing epik matn shakllanishidagi ahamiyatiga e’tibor qaratadi (Mirzayev, 1979). Mazkur nazariy qarash “Rustamxon” variantlarini muayyan baxshi va dostonchilik maktabi bilan bog‘liq holda o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

K. Pokrovskaya va A. Mirbadalova eposni tekstologik jihatdan o‘rganish masalalariga murojaat qilib, folklor matnlarining variantlarini qiyoslash va ularning matniy xususiyatlarini aniqlash muhimligini ko‘rsatganlar (Pokrovskaya and Mirbadalova, 1971).

O. Madayev va T. Sobitova xalq og‘zaki poetik ijodining janriy va badiiy xususiyatlarini yoritib, folklor asarlarining xalqona tabiatini hamda ijro jarayonining poetik ahamiyatini ko‘rsatadilar (Madayev and Sobitova, 2010).

Mavjud tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, “Rustamxon”ning epik tabiati, ijrochilari, turkumlik xususiyatlari va ayrim badiiy jihatlari o‘rganilgan. Biroq turli arxiv materiallari, xususan, Rahmatulla Yusuf o‘g‘li varianti bilan Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li variantining qiyosiy-tipologik xususiyatlarini bir tizimda ko‘rib chiqish masalasi alohida tadqiqotni talab etadi.

TADQIQOTNING ILMIY YANGILIGI.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, “Rustamxon” dostonining Rahmatulla Yusuf o‘g‘li tomonidan yozib qoldirilgan 1702-inventar raqamli varianti Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li varianti bilan ijrochilik an’anasi, sujet-kompozitsion qurilish, obrazlar tizimi va badiiy ifoda vositalari nuqtayi nazaridan qiyosiy-tipologik asosda tahlil qilindi. Shuningdek, variantlar o‘rtasidagi farqlar doston matnining buzilishi emas, balki og‘zaki an’ananing ijodiy yashash va qayta talqin qilinish shakli sifatida asoslandi.

METODOLOGIYA.

Mazkur maqolani yoritishda folklorshunoslikning tarixiy-tipologik, qiyosiy-tahliliy, tekstologik va tavsifiy metodlaridan kompleks ravishda foydalanildi.

Tarixiy-tipologik metod orqali “Rustamxon” variantlarining shakllanishi, ularning turli davr va ijrochilik muhitlariga aloqador jihatlari aniqlandi. Qiyosiy-tahlil metodidan Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li va Rahmatulla Yusuf o‘g‘li variantlari, shuningdek, boshqa qayd etilgan variantlarning umumiy va farqli xususiyatlarini aniqlashda foydalanildi.

Tekstologik metod yordamida turli qo‘lyozmalarning hajmi, yozib olingan vaqti, ijrochisi hamda arxivdagi inventar ma’lumotlari hisobga olindi. Tavsifiy metod esa variantlarning alohida xususiyatlarini izchil bayon qilish va ularni umumiy folklor poetikasi bilan bog‘lashga xizmat qildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

“Rustamxon” dostonining variantlilik xususiyatini o‘rganishda, avvalo, uning umumiy epik yadrosini aniqlash zarur. Turli variantlarda ayrim voqealar, personajlar faoliyati yoki badiiy ifoda shakli o‘zgarishi mumkin bo‘lsa-da, dostonning markaziy qahramoni Rustamxon va uning hayot yo‘li bilan bog‘liq asosiy sujet o‘qi saqlanadi.

Dissertatsiya materiallarida “Rustamxon” turkumi dostonlarining bosh qahramon — Rustamxon va uning biografiyasini to‘ldiruvchi Xuroyim, Oftoboy, Sultonxon kabi obrazlar hamda Oqtosh yurti atrofida birlashgani qayd etiladi.

Variantlilikning eng muhim ko‘rinishlaridan biri sujet epizodlarining turlicha hajm va shaklda berilishidir. Mallaboy Hoshimovdan yozib olingan variant 594-inventar raqamida saqlanib, 392 she’riy misra va 608 nasriy qatorni o‘z ichiga oladi. Melash Ermatov variantida esa she’riy misralar 483 tani, saj’li nasriy qatorlar 1026 tani tashkil etadi.

Rahmatulla Yusuf o‘g‘li varianti o‘zining yozib olingan muhiti bilan ajralib turadi. U Qo‘rg‘on dostonchilik maktabi an’analarining davomchisi bo‘lgan baxshi tomonidan yozib topshirilgan. Shu sababli ushbu variantni Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li varianti bilan qiyoslash ikki ijrochilik an’anasi o‘rtasidagi umumiy va o‘ziga xos jihatlarni aniqlash imkonini beradi.

Qiyosiy jihatdan qaralganda, variantlar o‘rtasidagi farq, avvalo, ijrochilik muhiti va matnning hajmiy-kompozitsion tashkilida ko‘rinadi. Rahmatulla Yusuf o‘g‘li varianti 1975-yilda yozib olingan qo‘lyozma sifatida 274 sahifalik manba bilan ifodalansa, Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li varianti dostonchilik an’anasida yuqori badiiyligi va xalqparvarlik ruhi bilan ajralib turadi. Mazkur farq ikki matnning bir xil epik asosni turli ijrochilik tajribasi orqali namoyon etishini ko‘rsatadi.

Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li variantining alohida ahamiyati uning yuksak badiiyligi va xalqparvarlik ruhida namoyon bo‘ladi. Dostonning ushbu variantida Rustamxon nafaqat bahodir, balki xalq manfaatini o‘z shaxsiy manfaatidan ustun qo‘yuvchi qahramon sifatida gavdalanadi. Rustamning Bujul shohi tomonidan taqdim etilgan taxtdan voz kechishi bunga yorqin misoldir. Qahramon podsholik va saltanatni emas, erkin hayotni, o‘z mehnati bilan kun ko‘rishni afzal biladi. Dissertatsiyada uning bu qarori xalqparvarlik va demokratik tendensiyalar bilan bog‘lanadi.

“Rustamxon” variantlarida qahramonlik sujetining markaziy halqalaridan biri Rustamning ajdar bilan kurashidir. Rustam Oftoboyning o‘lim xavfi ostida ekanini bilgach, xavfdan qo‘rqmaydi va ajdar bilan jangga kirishadi. Natijada u Oftoboyni va Bujul yurti xalqini xavfdan qutqaradi. Bu epizod qahramonning mardlik, jasurlik va xalqparvarlik kabi fazilatlarini ochishga xizmat qiladi.

Dostonning asosiy obrazlari orqali uning turli variantlarida saqlanib kelayotgan g‘oyaviy yadro ham namoyon bo‘ladi. Rustamxon — mardlik va adolat, Oftoboy — sadoqat va mehr, Xuroyim — sabr va onalik mehri, Sultonxon esa adolatdan chekinish va keyinchalik xatoni anglash kabi qarama-qarshi xususiyatlarni ifodalaydi. Dostonning boshqa bir muhim obrazi Tog‘aydir. U oddiy mehnatkash xalq vakili sifatida tasvirlanib, o‘zining to‘g‘riso‘zligi, mardligi va xalqparvarligi bilan ajralib turadi. Dissertatsiyada Tog‘ay obrazi xalq idealini tashuvchi qahramon darajasida baholanadi. Uning obrazi orqali mehnatkash xalqning adolatli, tinch va farovon hayot haqidagi orzu-istaklari ifodalangan.

Variantlilik faqat sujet yoki obrazlar bilan cheklanmaydi. Baxshining tili, paremalardan foydalanishi, epik formulalar, mubolag‘a va o‘xshatishlar ham variantning o‘ziga xosligini belgilaydi. Rustamning an’anaviy paremiologik birliklardan foydalanishi uning jasoratini ifodalash bilan birga, baxshining xalq tilidagi tayyor poetik birliklardan ijodiy foydalanish mahoratini ko‘rsatadi. Dissertatsiyada bunday paremalarning ijro jarayonida baxshi tomonidan vaziyatga mos ravishda variantlashtirilishi mumkinligi qayd etiladi.

“Rustamxon”ning variantlarini qiyoslashda yana bir muhim masala — dostonning boshqa folklor janrlari bilan munosabatidir. Dissertatsiyada “Rustamxon” sujetining ertak variantlari ham mavjudligi qayd etiladi. Bu hodisa doston sujetining xalq og‘zaki ijodining boshqa janrlarida ham yashashi mumkinligini ko‘rsatadi.

Shunday qilib, “Rustamxon” variantlari o‘rtasidagi farqlarni uch asosiy guruhga ajratish mumkin: birinchisi — sujet va epizodlar bilan bog‘liq variantlilik; ikkinchisi — obrazlar va motivlarning talqinidagi farqlar; uchinchisi — baxshi ijrochiligi, til va badiiy ifoda vositalari bilan bog‘liq variantlilik. Biroq bu farqlar dostonning asosiy epik yadrosini buzmaydi, aksincha, uning og‘zaki an’anada yashovchanligini ta’minlaydi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, xalq ijodini o‘rganish – xalqning tarixi, urf-odati, an’analari, o‘y-kechinmalari, bugungi kelajagini tadqiq etish demakdir. Unda millatning o‘zini anglash, o‘zligini namoyon qilish xislatlari, intilishlari, hayoti tarzi dunyoqarashi aks etgan. Ana shunday yuksak ma’naviyatimizning asosi hisoblangan xalq og‘zaki ijodini tom ma’noda anglash uchun esa uning g‘oyaviy badiiy va janr xususiyatlari, poetik shakllanishi, tarixiy ildizlari hamda mifologik asoslarini atroflicha tadqiq etish lozim bo‘ladi.

“Rustamxon” dostonining variantlari o‘zbek xalq dostonchiligining og‘zaki tabiatini, ijrochilik an’analarining ijodiy imkoniyatlarini va epik sujetning yashovchanligini ko‘rsatuvchi muhim manbalardir. Variantlarning barchasida Rustamxonning qahramonlik yo‘li, Xuroyim, Oftoboy va Sultonxon bilan bog‘liq asosiy munosabatlar hamda ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi kurash kabi umumiy epik asoslar saqlanadi. Shu bilan birga, baxshining ijrochilik maktabi, individual mahorati, hududiy muhit va og‘zaki an’ananing o‘ziga xos qonuniyatlari natijasida sujet, obrazlar, til va badiiy tasvir vositalarida muayyan farqlar yuzaga keladi.

Demak, folklor variantini birlamchi matndan chetga chiqish sifatida emas, balki og‘zaki ijodning yashash shakli sifatida baholash lozim. “Rustamxon” variantlarini qiyosiy-tipologik o‘rganish o‘zbek dostonchiligi maktablari, baxshi ijodiyoti va epik an’ananing tarixiy taraqqiyotini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Jirmunskiy, V.M. and Zarifov, H.T. (1947) *Uzbekskiy narodnyy geroicheskiy epos*. Moskva: GIXL.
2. Karimov. Z. So‘zboshi. “Rustamxon” dostoni. Aytuvchi: Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li.
3. Madayev, O. and Sobitova, T. (2010) *Xalq og‘zaki poetik ijodi*. Toshkent: Sharq.
4. Mirzayev, T. (1979) *Xalq baxshilarining epik repertuarlari*. Toshkent: Fan.
5. Obidova, M. (1982) *“Rustamxon” turkumi dostonlari*. Toshkent: Fan.
6. Pokrovskaya, K. and Mirbadalova, A. (1971) *Tekstologicheskoe izuchenie eposa*. Moskva: Nauka.
7. Xaydarova, M. (2023) *“Rustamxon” dostoni bo‘yicha magistrlik tadqiqoti*. Qo‘lyozma.
8. Zarif Hodi. Fozil shoir — mashhur dostonchi. Fozil shoir (Maqolalar to‘plami). O‘zbek xalq ijodi bo‘yicha tadqiqotlar, 3-kitob. T., «Fan», 1973. 5—29-betlar.
9. O‘zbek folklori ocherklari. 2-jild. –Toshkent: Fan, 1989. –B.18.
10. O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari. 11-tom. Go‘fur Gulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Tishkent-2018. B. 513-515.